

## SHAXSGA YO‘NALTIRILGAN YONDOSHUV ASOSIDA TA’LIM VA TARBIYA JARAYONINI REJALASHTIRISH

**Tursunova Gulchexra Qodirjonovna**

*Farg'ona viloyati Bag'dod tumani 57 - DMTT tashkiloti raxbari*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarni shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida rivojlantirishning nazariy va amaliy masalalari tahlil qilingan. Tadqiqotda ta‘lim-tarbiya jarayonida bolani jarayonning faol subyekti sifatida tan olish, uning individual ehtiyojlari, qiziqishlari va qobiliyatlarini ro‘yobga chiqarishda pedagogik qo‘llab-quvvatlashning ahamiyati yoritilgan. Shuningdek, bolaning fikrlash va harakat strategiyalariga tayangan holda, uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvor yo‘nalishlari va zaruriy shart-sharoitlari asoslab berilgan.*

**Kalit so‘zlar:** *Maktabgacha ta‘lim, shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv, pedagogik qo‘llab-quvvatlash, subyekt, individual rivojlanish, strategik fikrlash.*

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim asosida maktabgacha yoshdagi bolalarni umumiy rivojlantirish masalalari quyidagilarda aks etadi:

✓ maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida pedagogik qo‘llab-quvvatlashni amalga oshirish orqali bolalarni umumiy rivojlantirishning nazariy asoslarini tadqiq etish va ularning umumiy xususiyatlari bilan bog‘liq holda pedagogik yordam ko‘rsatishning mavjud darajasi va shart-sharoitlariga tayanish;

✓ bugungi kunda shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim konsepsiyasiga tayanilgan holda maktabgacha ta‘lim-tarbiyani jarayonini tashkil etish, bu jarayonda bolalarning sub‘yekt sifatida namoyon bo‘lishlarini ta‘minlash, ularni har tomonlama rivojlantirishga erishish, umumiy imkoniyatlarini ro‘yobga chiqarishni ustuvor maqsadga aylantirish;

✓ maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida tarbiyalanadigan bolalar birinchi navbatda tarbiyachining pedagogik qo‘llab-quvvatlashiga ehtiyoj sezishlarini hisobga olish;

✓ bolalarni pedagogik qo‘llab-quvvatlash orqali ularni umumiy rivojlantirish jarayonining mazmunini bolaning qiziqishlari, intilishlari va ehtiyojlariga mos tarzda tanlash va amalga oshirish. Bola shaxsini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘lim – tarbiyalanuvchining fikrlash va harakat strategiyasini inobatga olgan holda uning shaxsi, o‘ziga xos xususiyatlari, qobiliyatini rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta‘limdir.

1. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim va jarayonida pedagogning bilimi, tarbiyasi va ish tajribasi yetarli darajada bo‘lishi;

2. Ta‘limga insonparvarlik-shaxsiy pedagogik munosabatlarni insonparvarlashtirish, “Men” kontsepsiyasini shakllantirish.

3. Maktabgacha ta‘lim sog‘lom, har tomonlama yetuk bola-larni tarbiyalash uchun zarur tashkiliy, uslubiy, psixologik, pedagogik shart-sharoitlar yaratadi, bolalarni maktabda muntazam ravishda ta‘lim olishga tayyorlashda ota-onalarga yordam beradi.

Shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuvni amalga oshirishda ta‘lim jarayonida bolaning bir vaqtning o‘zida o‘ynashi, rivojlanishi va o‘rganishi uchun imkoniyat yaratib berish kerak.

Maktabgacha yoshdagi bolalar va pedagoglar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning asosiy shakli ularning birgalikdagi faoliyati hisoblanadi.

Maktabgacha ta'lim tizimida "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturining hamda "Ilm yo'li" variativ dasturining ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilgani maktabgacha ta'lim sohasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. "Ilm yo'li" variativ dastur mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar maktabgacha ta'limga qamrab olingan bolalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog-xodimlari uchun mo'ljallangan.

Buyuk ajdodimiz Al-Buxoriyning «Hadis» kitobida «Bolaga rahmdillik qilmoq, uni o'pib quchoqlamoq haqida» yoritilgan. Yaponiyaning zamonaviy pedagog-olimlari bolani kuniga 200 martagacha erkalatishni tavsiya beradilar.

O'zbekistonning Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim tashkilotining Davlat o'quv dasturlari boyicha bolalarning jimonan, ruhiy va bilimli bo'lib kamol topishlariga alohida e'tibor beriladi. Mana shular asosida ta'lim va tarbiya berib kelinadi. Shvetsiya bog'chalarida bolalarning jismoniy rivojlanishiga urg'u berilgan. Ular ko'p vaqtlarini ochiq havoda, o'yin yoki o'qishda o'tkazadi. Shvetsiya bog'chalarining noodatiyligi ko'p hollarda bolalarga ko'lmaklardan o'tishga, yerga yotishga va hatto ustiboshi va o'zini iflos qilishga ham ruxsat beriladi. «Baxtli bola – iflos bola» deyishadi, ular.

O'zbekistonning maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalar bepul ta'lim-tarbiya oladilar. Ularga odob-ahloq, Vatanga, oila a'zolariga va boshqalarga hurmat, mehmondo'stlik, bag'rikenglik, shirin muomilada bo'lish, bolalik davridanoq o'rgatib boriladi. Faoliyat jarayonlari o'yin tarzida olib boriladi. Ushbu faoliyatlar bolani yanada bilim olish uchun qiziqishiga sababchi bo'ladi.

Germaniya bog'chalarida muloqotga ko'p vaqt ajratiladi.

Tarbiyachilar bolalarning muloqot qobiliyatlariga e'tibor berib, ularga bag'rikenglik, qiyin vaziyatlardan chiqish yo'lini topish va atrofdagilarga hamdardlik ko'rsatish xususiyatlarini shakllantirishga ahamiyat beradi.

O'zbekiston ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'limga alohida e'tibor kuchaytirmoqda. Koreyada bolalar bog'cha davomida o'qish, yozish va hisoblashni to'liq o'rganib, so'ngra maktabga chiqishadi.

haxsga yo'naltirilgan yondashuv bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to'planadigan ta'lim muhitini yaratishni o'z ichiga oladi. Maktabgacha ta'lim tizimi qayta qurila boshladi – avtoritar tizimdan pedagogik jarayonni qurishning shaxsga yo'naltirilgan modeliga o'tilmoqda. Ma'lumki, shaxsiyatning asosiy poydevori hayotning dastlabki yetti yilida qo'yiladi: bolaning maktabgacha yoshida shakllangan fazilatlar va fe'l-atvorlari keyinchalik o'zgar olmaydi. Qisman o'zgarib, tashqi ko'rinishi o'zgaradi, xolos.

Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv – bu pedagogning e'tiborini bolaning ajralmasshaxsiga, uning nafaqat intellektual qobiliyatlari va fuqarolik mas'uliyat hissini rivojlantirishga bo'lgan e'tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo'lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratishdir. Ta'limning asosiy



qadriyatining bunday e'tirof etilishi shaxsning o'ziga xos shakllanishidir. Biz har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o'zlarining rivojlanish yo'llarini tanlash huquqini berishimiz kerak.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim faollik markazida tarbiyalanuvchining o'zi, ya'ni bolani shaxs sifatida – uning xohish-istaklari, niyatlari, maqsadlari, noyob kichik hayot tajribasi ekanligi taxmin qilinadi. Shu munosabat bilan ta'lim jarayoni ta'lim “bilimlarni kattadan bolaga o'tkazish” modelidan, “bola tashabbuslari ma'qullanadigan va bola ta'lim jarayonida faol ishtirok etadigan” modelga yo'naltirilishi kerak. Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning maqsadi: bolani o'ziga xos shakllantirish uchun zarur bo'lgan o'zini-o'zi anglash, rivojlantirish, moslashtirish, boshqarish, himoya qilish, tarbiyalash mexanizmlarini kiritishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modeli – bizning ta'lim tizimimizga tanish bo'lgan bolaga ta'lim va intizomiy yondashuvni yengishga, pedagoglarni bolalar bilan hamkorlik ko'nikmalariga, shuningdek, yangi pedagogik texnologiyalarga ega bo'lishdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim modelining ijobiy tomonlarini ko'rish uchun biz uni an'anaviy ta'lim va intizomiy yondashuv bilan taqqoslaymiz. Shaxsga yo'naltirilgan yondashuvning asosiy tamoyillari:

O'zini namoyon qilish tamoyili. Har bir bolada o'zining intellektual, kommunikativ, badiiy va jismoniy qobiliyatlarini namoyon qilish ehtiyoji bor. Bolaning tabiiy va ijtimoiy qobiliyatlarini namoyon etish va rivojlantirish istagini rag'batlantirish va qo'llab-quvvatlash juda muhimdir. Individuallik tamoyili. Bola shaxsiyatining individual shakllanishi uchun sharoit yaratish ta'lim tashkilotining asosiy vazifasidir. Nafaqat bolaning individual xususiyatlarini hisobga olish, balki uning kelgusi rivojlanishiga har tomonlama hissa qo'shish kerak. Sub'ektivlik tamoyili. Individuallik faqat sub'ektiv kuchlarga ega bo'lgan va ulardan faoliyat, aloqa va munosabatlarni qurish uchun mohirona foydalanadigan kishilarga xosdir. Bolaga guruh hayotidagi haqiqiy sub'ektivga aylanishiga, shaxsiy tajribasini shakllantirish va boyitishga hissa qo'shish kerak.

Maktabgacha yoshda beriladigan ta'lim-tarbiya insonning butun umri davomida farovon va baxtli hayot kechirishi uchun mustahkam asos bo'ladi. Shu bilan birga, bu davrda ta'lim-tarbiya bolaning ijtimoiy, hissiy, kognitiv va jismoniy ehtiyojlarini rivojlantirishni maqsad qiladi.

Shiddat bilan rivojlanayotgan dunyoning bugungi sharoitida maktabgacha ta'lim tashkilotlari oldiga ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari hamda “Ilk qadam” Davlat o'quv dasturi asosida bir mavzu bo'yicha bir kun ichida barcha faoliyat yo'nalishlarini birlashtirgan holda faoliyatlar rejasini ishlab chiqishdek dolzarb vazifa qo'yilgan. Bolalar hayotining asosiy qismi maktabgacha ta'lim tashkilotida o'tadi. Pedagog har kun va har soatni shunday tashkil etishi lozimki, bola yangi narsalarni kashf qilsin, ongi rivojlansin va shaxs sifatida shakllansin.

Demak, maktabgacha yoshdagi bolalarda bilim olish faoliyatining yaxlit rivojlanish tizimini yaratish va atrof-olamni tubdan idrok etish imkonini beradigan tizimli integrasiya jarayonini ta'minlash maktabgacha ta'lim tizimidagi har bir pedagogning vazifasidir.

Shuningdek, bolalarning real shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari amalga oshiriladigan, bolalar tomonidan shaxsiy tajriba va bilimlar samarali to'planadigan ta'lim



muhibti – shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv demakdir. Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv – bu pedagog e‘tiborini bolaning ajralmas shaxsiga, unda nafaqat intellektual qobiliyatlar va fuqarolik mas‘uliyat hissini rivojlantirishga bo‘lgan e‘tiborini, balki hissiy, estetik, ijodiy moyilliklari va rivojlanish imkoniyatlariga ega bo‘lgan ruhiy shaxsni rivojlantirishga qaratilgan. Ta‘limda asosiy qadriyatning bunday e‘tirof etilishi shaxsning o‘ziga xos shakllanishidir.

Pedagog har bir bolaga uning xususiyatlarini, hayotiy qadriyatlarini, intilishlarini aniqlash asosida o‘zlarining rivojlanish yo‘llarini tanlash huquqini berishi lozim. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim-tarbiya bu:

- tarbiyalanuvchi va pedagog o‘rtasidagi samimiy hamkorlik munosabatlarini;
- kun davomida amalga oshirilayotgan faoliyatdan tarbiyalanuvchi ham, pedagog ham ijobiy emosional qoniqish olishni;
- muloqot va mehnat orqali ijobiy natijalarga erishish hissini;
- o‘ziga va do‘stlariga yordam berish ko‘nikmasi kabilarni rivojlantirish orqali namoyon bo‘ladi. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim faoliyatlarini tashkil etishda va boshqarishda muammoli ta‘lim turining ahamiyati kattadir.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlarida mazkur ta‘lim turidan har qaysi pedagog samarali foydalana oladi. Ta‘limiy faoliyat jarayonida muammoli vaziyatdan qay tartibda foydalanish pedagogning yondashuviga, uning ijodkorligiga bog‘liq bo‘ladi. Ta‘limiy faoliyat jarayonida muammoli vaziyatdan foydalanilganida, tarbiyalanuvchida qiziqish, e‘tibor berish, vaziyatni hal qilishga bo‘lgan intilish namoyon bo‘ladi. Masalan, “Ilk qadam” davlat o‘quv dasturida fevral oy mavzusi “G‘aroyib dunyo” etib belgilangan. Tayyorlov guruhida 1-hafta mavzusi “Qo‘shni mamlakatlar” mavzusi. Mavzudan kelib chiqqan holda tarbiyachi muammoli vaziyatlarni yaratishi mumkin. Masalan, turli mamlakatlarning rasmlarini qo‘yib, tarbiyalanuvchilardan qaysi rasmdagi mamlakat bizning respublikamiz bilan qo‘shni ekanligini so‘rash. Tarbiyalanuvchi tomonidan javob olingach, “Nima uchun shunday deb o‘ylaysan?” deb so‘raladi. Tarbiyalanuvchi tomonidan berilgan javob tarbiyachi tomonidan tahlil etiladi.

Shuningdek, qo‘shni mamlakatlarga xos musiqa eshittirish orqali ham tarbiyalanuvchilar uchun muammoli vaziyat yaratish va ular tomonidan berilgan javoblar albatta tahlil etilishiga e‘tibor berish lozim. Bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim faoliyatlarini tashkil etish va boshqarishning samaradorligini aniqlash mezonlarini ko‘rib chiqamiz:

- tarbiyachi o‘z kasb mahoratini muntazam oshirib boradi, ijodiy faoliyatini rivojlantirish darajasi ortadi;
- tarbiyachining tarbiyalanuvchilar bilan individual ishlashga, har bir bolaga alohida yondashishga xohishi ortadi;
- tarbiyachining bola shaxsiga yo‘naltirilgan ta‘lim mashg‘ulotlarini tashkil etishi va boshqarishi natijasida ma‘naviy-ma‘rifiy salohiyati rivojlanadi;
- o‘z sohasi bo‘yicha yutuqlaridan xabardor bo‘lish, amaliy faoliyatni tashkil etish bo‘yicha ko‘nikma va malakalarga ega bo‘ladi;
- tarbiyachi o‘z faoliyati davomida bolaning shaxsiy sifat va qobiliyatini tarbiyalash, komil inson qilib tarbiyalashning shakl va usullarini o‘rganadi;

- tarbiyachining maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagoglar va ota-onalar o'rtasida obro' va hurmati ortadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlil etilganligi:

Maktabgacha ta'lim tizimida "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasi Davlat o'quv dasturining hamda "Ilm yo'li" variativ dasturining ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilgani maktabgacha ta'lim sohasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. "Ilm yo'li" variativ dastur mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar maktabgacha ta'limga qamrab olingan bolalar va maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog-xodimlari uchun mo'ljallangan.

### **Xulosa**

Farzandini maktabgacha ta'lim tashkiloti tomon yetaklayotgan onaning bu dargohdan, farzandidan umidi katta.

Bolasi uchun eng osoyishta, ham ma`nan, ham moddiy taminoti ta`minlanadigan, uning vaqtini mazmunli o`tishida sevimli mashg`ulotlari bilan ta`minlaydigan ham - maktabgacha ta'lim tashkiloti. Darvoqe, maktabgacha ta'lim tizimi bugungi ijtimoiy turmush tarzimizning muhum qadamlaridan biriga aylanayotgani, tizimning yangi bosqichga rivojlanayotgani ham ota-onani, ham jajji farzandlarimizni quvontiradi.

Avvalo, sohani tubdan rivojlantirish uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 30 sentyabrdagi "Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3955-son hamda 2019 yil 8-may 2030 yilgacha maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha qarorlari yo'l xaritasi bo'ldi desak yanglishmaymiz. Darhaqiqat, maktabgacha ta'lim uzluksiz ta'limning boshlang'ich bo'gini hisoblanadi. Bu davrda bola dunyoni ahglaydi, o'z ona tilini o'zlashtiradi, ota-ona, oila va Vatanga mehri uyg'onadi, umri davomida oladigan bilimlariga zamin hozirlanadi. Bunda oila bilan birga maktabgacha ta'lim tashkilotining o'rni kattadir. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim sohasida, yosh avlodni yetuk kadrlar etib tarbiyalash masalalariga doimiy e'tibor qaratib kelinmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimida "O'zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo'yiladigan Davlat talablari" va "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasi Davlat o'quv dasturining hamda "Ilm yo'li" variativ dasturining ishlab chiqilib, amaliyotga tadbiiq etilgani maktabgacha ta'lim sohasidagi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. "Ilm yo'li" variativ dastur mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar maktabgacha ta'limga qamrab olinmagan 6 yoshdan 7 yoshgacha bo'lgan bolalarni "Boshlang'ich ta'limga majburiy bir yillik tayyorgarlik guruh"lari mavjud bo'lgan maktabgacha ta'lim tashkilotlarining pedagog-xodimlari uchun mo'ljallangan. Bola kompetensiyasi – bolaning bilim, ko'nikma, malakalar va qadriyatlar majmuidir. Tayanch kompetensiyalar rivojlanish sohalaridan qat'iy nazar, bola shaxsi shakllanishi uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Maktabgacha ta'limda kompetensiyaviy yondashuv deganda bolalarni ta'lim tashkilotida egallagan bilimlari orqali kundalik hayotda duch kelinadigan tanish yoki notanish vaziyatlarda foydalanishga tayyorlashdir. Maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim berishda kompetensiyaviy yondashuv o'sib borayotgan bola shaxsini hayotga tayyorlash, unda hayotiy

muhim masalalarni hal qilish uchun zarur bo‘lgan, axloqiy me‘yor va qadriyatlarni o‘zlashtirish, boshqa insonlar bilan muloqot qilish, «Men» obrazini qurish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat usullarini shakllantirishga tayyorgarlikni ko‘zda tutadi. Bolalarda o‘yin jarayoni va uni tashkil qilishda tajriba, bilim va ko‘nikmalardan ijodiy foydalanish imkoniyati yaratiladi. O‘quv-tarbiyaviy jarayon uchun asos hisoblanadi.

Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari barcha yosh guruhlarida tashkil etilgan rivojlanish markazlaridagi jarayonlar bolalarning doimiy ravishda yangi bilimlarni o‘zlashtirishga, mustahkamlashga yordam beradi. Bolalarni o‘z bilimini mustaqil ravishda to‘ldirib borish, bo‘layotgan yangilanish jarayonlariga munosib moslashib borishga o‘rgatish rivojlanish markazlarining asosiy maqsadidir.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: “O‘zbekiston”, 2017.
2. Qodirova F.R., Toshpo‘latova Sh.Q., Kayumova N.M., A‘zamova M.N. “Maktabgachapedagogika” Darslik “Tafakkur” –T.: 2019
3. Qodirova, S. M., & Xallokova, M. E. (2023). “Maktabgacha ta‘limda shaxsga yonaltirilgan yondoshuv xususiyatlariga oid xorijiy tajribalar” 2(13),122-125.
4. Maksuda Xallokova, Qodirova S. (2023). Maktabgacha ta‘limda shaxsga yo‘naltirilgan yondoshuv asosida ta‘lim jarayonini tashkil etish va rejalashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari”.Journal of Pedagogical and Psychological Studies 1(8),3-9.
5. O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan Davlat talablari. Toshkent-2018 yil. 8-bet
6. “Ilm yo‘li” variativ dasturi. Toshkent “Sano-standart” 2020 yil. 13, 15-bet. 463 w www.oriens.uz October 2021 Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences Scientific Journal Impact Factor VOLUME 1 | ISSUE 9 ISSN 2181-1784 SJIF 2021: 5.423
7. Maktabgacha pedagogika f. r. Qodirova, Sh. Q. Toshpo'latova, N.M. Kayumova, M. N. A'zamova "Tafakkur" Nashriyoti Toshkent - 2019 4. Maktabgacha pedagogika Berdiyeva M.M.
8. Maktabgacha tarbiya pedagogikasi P.Yusupova Toshkent “O‘qituvchi” 1993 yil.